

SHIX QISHLOG‘I SHEVASINING AREAL LINGVISTIK TAVSIFI

Alimardanov Elyor Ilxom o‘g‘li

ToshDO‘TAU tayanch doktranti

alifiroqiy.95@gamil.com

***Annotatsiya.** Maqolada Xorazm viloyatining Qo‘shko‘pir tumani Shix qishlog‘i shevasi tadqiq ostiga olindi. Shix qishlog‘ida tarixan turkmanlar yashab kelishgan keying davrda o‘zbeklar bilan yaqin yashash natijasida ularning shevalarida anchayin o‘zgarishlar yuzaga kelgan.*

***Kalit so‘zlar:** o‘zbek tili, turkman tili, sheva, shix//shayx, til oroli, oraliq sheva.*

***Abstract.** In the article, the dialect of Shikh village, Koshkopir district, Khorezm region was studied. Historically, Turkmens lived in the village of Shikh, and as a result of close living with Uzbeks, many changes occurred in their dialects.*

***Key words:** Uzbek language, Turkmen language, dialect, Shikh//Sheikh, language island, intermediate dialect.*

Shixlarning tarixi haqida umumiy ma‘lumot

Shix Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumanining eng chekka Turkmaniston Respublikasi bilan chegara hududida joylashgan qishloq bo‘lib, uni shimolda G‘ozovot, janubdan Oqdarband, sharq tomondan esa, Xayrobod qishloqlari o‘rab turadi. “Dovudko‘l” zahkashi esa qishloq yerlarini teng ikkiga ajratgan [Муллаев Қ., 9-бет]. Mahalliy xalq tilida Shix deb nomlanuvchi qishloq hozirgi kunda uch Shixobod, Yoshlik, Bog‘zor mahallalariga bo‘lingan. Qishloqning, umuman, ushbu joylarning tarixan tashkil topishi, taraqqiy etishida shixlar muhim rol o‘ynagan. Shunga ko‘ra, shix etnonimi haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Shix shu nomdagi turkiy urug‘ bo‘lib, O‘zbekiston milliy inseklopediyasida shixlarga quyidagicha ta‘rif beriladi: Shixlar – turkiy qabila. Shixlarning asosiy qismi o‘rta asrlardan hozirgi Turkmanistonning g‘arbiy qismida, O‘zbekistonning Buxoro, Qorako‘l, Navoiy, Muborak tumanlarida yashaganlar. Shix urug‘ sifatida o‘zbeklarning qutchi, qarluq qabilalari tarkibida ham uchraydi. Shix o‘z nomlarini shayx (diniy unvon, muqaddas joy, madrasa nazoratchisi va h.k.)larga yaqin qo‘yib, kelib chiqishlarini esa Muhammad (s.a.v.) payg‘ambar bilan bog‘laydilar. Aslida Shix o‘rta asrlarda yirik qabilalardan birining nomi bo‘lib, keyinchalik tarmoqlarga bo‘linib ketganlar. XIX asrning ikkinchi yarmida Shixning asosiy qismi yarim ko‘chmanchi bo‘lib, chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. XX asrning 20-30-yillarida Turkmanistondagi shixlar turkmanlar tarkibiga O‘zbekistonda yashagan shixlar

o‘zbeklar tarkibiga singib ketishgan [O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 10-jild, 80-bet].

Ensiklopediyada keltirilgan ma’lumotlarda Xorazm viloyati va undagi shixlar haqida aytib o‘tilmagan. Ta’kidlash joizki, viloyat hududida shix etnonimi bilan bog‘liq bir nechta toponimlar tarixdan mavjudki, hozirgacha joy ma’nosi sifatida qo‘llanilib kelinmoqda. Qo‘shko‘pirdan boshqa Xiva tumanida Shixlar, Yangibozor tumanida Boshqirdshixlar mahallalari mavjud.

O‘z-o‘zidan savol tug‘iladi, Turkmaniston chegarasida joylashgan ushbu qishloqda o‘zbek millatiga mansub shix urug‘i vakillari yashaydimi, yoki turkman millatiga mansub shixlar yashaydilar?

Qishloqning tarixiga bag‘ishlangan Q.Mullayev muallifligidagi “Shayxliklar” kitobida mahalliy xalqning kelib chiqishini Hozirgi Turkmaniston Respublikasi Toshhovuz viloyati Go‘ro‘g‘li tumanidagi Ismamut ota (Ismi Mahmud Ota) qadamjosi atrofidan kelib, ayni shu joyga o‘rnashib necha asrlardan buyon yashab kelayotgan turkman urug‘lariga nisbat beriladi [Муллаев Қ. 5-бет].

Kitobda qayd etilishicha, Ismamut ota mashhur sahoba Said Ibn al-Musayyab al-Qurayshiy bo‘lib, Ismamut ota uning xalq tilidagi nomi, taxallusidir. Ismamut ota Xorazmga islom dinini targ‘ib qilish maqsadida kelib, umrining oxirigacha shu yerlarda qolib ketadi. Turli ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jarayonlar sabab, Ismamut ota qadamjosi atrofidagi yashovchi ma’lum kishilar Hozirgi Shix qishlog‘iga kelib o‘rnashadi, ushbu yerni manzili-makon tutadi. Xalq orasida ularni Ismamut otaning, shayxning qadamjosidan kelganlar degan ma’noda hurmat bilan shayxliklar // shixliklar deb atashadi.

Qiziq tomoni shundaki, kuzatishlarimizdan shixlarning kelib chiqishi borasida turli, aksariyat hollarda bir-biriga zid qarashlar mavjud ekanligi ayon bo‘ldi. Xususan, “Shayxlilar” risolasiga ko‘ra, shixlar aslida turkmanlarning ota urug‘idan kelib chiqqan bo‘lib, shix urug‘ nomi bo‘lmasdan, Ismamut ota ziyoratgohini nazorat qiluvchilarning avlodi ma’nosidagi unvondir. Bu yerlarga ko‘chib kelish sabablari etib, Amudaryo o‘z o‘zanini o‘zgartirib, Kaspiyga emas, Orolga quyila boshlashi va natijada obod yerlar cho‘l-u biyobonlarga aylanishi tufayli mahalliy xalqning suvli joylarga ko‘chishi ko‘rsatiladi.

Qishloqda rahmatli Matnazar Nurmatov xonadonida uzoq vaqtdan beri saqlanib kelayotgan shajara kitobi mavjud bo‘lgan, hozirgi kunda ba’zi sabablarga ko‘ra kitob yo‘qolgan. Ammo ushbu xonadon vakili Odamboy Nurmatov ushbu kitobga ko‘ra padari buzrukvoridan eshitganlarini biz bilan bo‘lishdi. Odamboy akaning malum qilishicha, shixlar aslida turkmanlarning taka urug‘iga mansub bo‘lib, Ismamut otaga Helavay takaning o‘g‘li Otaboy murid bo‘ladi. Shu Otaboyning besh o‘g‘li O‘tash, Ulush, Ali, Soatquli, Yusufdardan tarqalgan avlod shixlar sifatida hozirgi qishloqqa kelishadi. Dehqonchilik, bog‘dorchilik bilan shug‘ullanib, sho‘r yerlarni o‘zlashtirib, obod qiladilar. Bog‘-u rog‘lar barpo etadilar. Qilgan mehnatlari evaziga kun kechirib,

qolgan mablag'larini Ismamut ota manzilgohiga sarflaganlar. Odamboy akaning aytishicha, Otaboyning avlodlari bu yoqqa ko'chishlarining sababi Xiva xoni tomonidan ushbu yerlar vaqf sifatida Ismamut ota manzilgohi yerlariga qo'shib beriladi. Shunga ko'ra, ushbu yerlarga ekin ekib, uning daromadini ziyoratgoh obodonchiligi uchun sarflash kerak bo'ladi. Avvalboshda hozirgi Shix qishlog'iga O'tash, Ulush, Ali va uning bolalari keladi. So'ngra, Soatquli va Yusufning avlodlari kelib, halol mehnat bilan yerlarni o'zlashtirib, obod qiladilar.

Qishloqdagi shix vakillari ushbu 5 aka-ukalarning avlodlari hisoblanishadi. Keyingi davrda ko'plab o'zbeklar ko'chib kelishib, shixlar bilan birga yashay boshlaydilar. Ma'lumotlarga ko'ra, shixlar doimo hurmat-izzatda bo'lishgan. Xiva xonidan tortib, oddiy xalqqacha shixlarga alohida ehtirom ko'rsatishgan.

Turkman urug'lari va etnonimlariga bag'ishlangan tadqiqotlarda ota, taka, shix alohida urug' sifatida keltiriladi. Masalan, S.Arazkuliyev ota urug'ini uch katta guruhga ajratadi: Nur ota, Umar ota, Ibaq ota va unda shixlar haqida ma'lumot keltirmaydi [Arazkuliyev S., 15-bet]. Shuningdek, otalarning yashash manzillari sifatida, Lebap viloyatining Darg'onota va Qoraqalpog'istonning To'rtko'l tumanlari etib qayd etiladi. S.Ataniyazovga ko'ra, shixlar alohida urug' bo'lib, uning quyidagi guruhlari mavjud: Qizilshix, Qanoryoqashixlari (Kenaryakashixlari), Faqirshix (Pakirshix), Ravonchilishix (Rovanjilishix), Ostonaboboli shix (Astanababali shix). S.Ataniyazov o'zining "Turkman urug'larining tarixi, tarqalishi, bugungi holati va kelajagi" mavzusidagi maqolasida shix, taka va ota urug'larining o'zaro bog'liqligi haqida to'xtalmaydi.

Qishloqda yashovchi ba'zi kishilarning fikricha, shixlar aslida o'zbeklar, boshqalarning ma'lum qilishicha, shixlar turkmanlardir. Shu jihatdan, qishloqdagi shixlarning kelib chiqishi ota yoki takalarga borib taqalishi, hozirda o'zlarini shix deyishlari hamda mazkur shixlarning tarkibida o'zbeklarning mavjudligi kabi jumboqli savollar bu borada aniq munosabat bildirishni qiyinlashtiradi. Shevaga jonli tarix sifatida qarash omili ham borki, bu esa, urug'-qabilachilik an'alarini yaxshi saqlagan, shunga ko'ra sheva elementlari ham bir-biridan farq qiluvchi turkman urug'lari borasida fikr bildirib, masalaga oydinlik kiritish imkonini beradi. Aytish joizki, qishloq turkmanlarining shevasi ko'p tomonlama taka urug'i shevalariga yaqin. Ta'kidlash joizki, qishloq shixlarining kelib chiqishi, tarixi, tarqalishi o'z tadqiqotchilarini kutayotgan mavzulardan biridir.

Hozirda Shix qishlog'ida 9 mingdan oshiq aholi istiqomat qilishadi. Aholining asosiy qismini o'zbeklar, mingga yaqin turkmanlar va juda kamsonli qismini qoraqalpoq, tatar, ruslar tashkil qiladi. Asrlar davomida ko'chib kelgan shixlar o'zbeklar bilan yaqin qo'shnichilik, yaxshi quda-andachilik aloqalarini o'rnatib yillar sayin o'zbeklar tarkibiga singib borgan va bu jarayon davom etmoqda.

Shixobod – til oroli sifatida

Uzoq yillik ikki millat, ikki til vakillarining yaqin aloqada yashashi ushbu hududda o‘ziga xos lisoniy vaziyatni yuzaga keltirgan. Turkmanlar o‘z tilida o‘zbeklar o‘z tilida so‘zlashib, millati singari tillarini ham rivojlantirib borishgan. Sobiq Ittifoq parchalangandan so‘ng, ma‘lum muddatdan keyin turkmanlarning Turkmaniston bilan aloqasi uzildi. Atrofi, asosan, o‘zbeklar bilan o‘ralgan Shix qishlog‘i turkmanlari tili esa, areal lingvistik jihatdan til oroli sifatida qolib ketdi.

Areal lingvistikada til oroli tushunchasi mavjud. Til oroli termini ilk bor nemis tilshunos olimi V.Kun tomonidan 1847-yilda qo‘llanilgan. V.Kun til oroli (nem. Sprachinsel) terminini Sharqiy Prussiyaning Kyonigsberg yaqinida nemis tilida so‘zlashuvchi aholi bilan o‘ralgan slavyan tilli jamoasini ajratib ko‘rsatish uchun ishlatgan. Atrofi o‘zbeklar bilan o‘ralgan shixliklar shevasi til oroli maqomida. Sababi, boshqa tillararo innovatsion markazdan yiroq bo‘lsa-da, lekin mazkur tilda muloqot qilinadigan va o‘zicha rivojlanib borayotgan turkmanlar shevasi til oroliga to‘g‘ri keladi.

Atrofi bir yoki bir nechta tillar bilan o‘ralgan lingvistik hududga til oroli deyiladi. Adabiyotlarda til oroli termini lingvistik va dialektologik orol terminlari bilan ham ataladi. Agar har bir dialekt faqat o‘ziga mansub chegaralarda qolsa, bunday til landshaftini lingvistik yoki dialektologik orol deb hisoblash mumkin bo‘ladi [Olloyorov Q. 61-bet]. Demak, til oroli deb, atrofi boshqa tillar bilan o‘ralgan, innovatsion markazdan uzilgan, alohida rivojlanish jarayonidagi lingvistik hududga nisbat beriladi.

Til oroli o‘laroq, Shix qishlog‘ining uzoq o‘tmishiga aloqador lingvistik-lisoniy tarixi bor. Buni areal-xronologik, diaxron nuqtayi nazardan jihatdan o‘rganish mumkin bo‘ladi. Zero, til (sheva) jamiyat bilan bog‘liq tarzda sekin-astalik bilan o‘zgarib boradi.

Til orollari yuzaga kelishida, “buyuk ko‘chishlar”, siyosiy-ijtimoiy kelishmovchiliklar sabab bo‘ladi [Olloyorov Q. 61-bet]. Yuqorida Shix qishlog‘i aholisining ko‘chib kelishi borasidagi ma‘lumotlarni imkoniyat darajasida bayon etdik.

Tarixdan ma‘lumki, vaqf mulklaridan soliqlar olinmagan. Shu sabab, shixliklar manzilgohiga ilk davrlardan o‘zbeklar ko‘chib borib, o‘rnasha boshlagan. Uzoq yillik o‘zbeklar bilan yaqin yashashlari qiz olib, qiz berishlari natijasida ko‘plab, turkmanlar o‘zbeklashib ketganki, bu holat ularning tillarida ham aks etib, ular o‘z tillarini “unutishgan”. Shuningdek, qishloqda o‘zligini “yo‘qotmagan” hamda keyingi davrda Turkmanistondan ko‘chib kelgan turkman tilida so‘zlashuvchilar ham mavjuddir. Bu esa, qishloq shevasini yaxlit bir tizimga solib o‘rganishga noqulaylik tug‘diradi. Shunga ko‘ra, qishloq shevalarining lingvistik xususiyatlarini inobatga olib, shartli ravishda ikkiga ajratishni ma‘qul ko‘rdik:

- a) til oroli sifatidagi turkmanlar shevasi;
- b) o‘zbek-turkman tillari unsurlari aralash – oraliq sheva.

Aytish joizki, shartli ravishda ajratilgan ikki shevaga ham o'zbek adabiy tilining ta'siri kuchli. Lekin til oroli sifatidagi turkmanlar shevasida turkmancha unsurlarning (fonetik, leksik, morfologik) keng qo'llanilishi uni oraliq shevalardan farqlab turadi va shunga ko'ra, qishloq shevasini ikki guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ishda, avvalboshda til oroli sifatidagi turkman shevasi haqida to'xtalib o'tamiz.

Qishloqda aytib o'tilganidek, mingga yaqin turkmanlar istiqomat qilishadi. Til oroli maqomidagi turkman shevasidan, asosan, qishloqning Shixobod mahallasi "Turkman ova" qismida yashovchi turkmanlar iste'molda foydalanishadi. Ular o'zbek tilini xoh u adabiy til, xoh u Xorazm shevalari bo'lsin yaxshi tushunishadi va o'zbek tilida bemalol muloqot qila olishadi. Lekin muloqot jarayonida turkman shevalariga xos elementlarini faol qo'llab kelishlari diqqatga sazovordir.

Turkmanlar shevasining xarakterli xususiyatlari

Shix qishlog'ida iste'molda bo'lgan turkman tili xususiyatlari saqlangan sheva tabiiyki o'zbek tili ta'siriga tushgan va muayyan o'zgarish jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Lekin ayrim holatlarda o'z asl xususiyatlari saqlaganini ham kuzatamiz. Masalan, turkman adabiy tili va shevalariga xos bo'lgan til orqa, portlovchi, jarangli \hat{g}^* va ushbu undoshning turkman adabiy tilidagi sirg'aluvchi varianti \hat{g}^* boshqa shevalarda bo'lgani kabi qishloq turkmanlari shevasida ham alohida fonema sifatida saqlangan.

\hat{g} (asosan so'z boshida)	\hat{g} (asosan, so'z o'rtasida)
$\hat{g}\ddot{i}:z$	o'g'lan
$\hat{g}o'jun$	sig'ir
$\hat{g}ow\ddot{i}:$	jag'ni:
$\hat{g}alam$	so'gan

Chuqur til orqa \hat{k}^* tovushi asosan, orqa qator unlilar bilan qo'llaniladi: **ka:ka, arka, taqka, akil.**

Lekin turkman adabiy tilida va markaziy shevalarda uchraydigan apikal talaffuz qilinuvchi **s, z** tovushlari o'zbek tilidagi kabi talaffuzga ega.

Singarmonizm deyarli to'liq amal qiladi. Turkman tilidagi kabi lab garmoniyasi xarakterlidir: *oglonloro, doldurup, otur.*

Morfologik jihatdan qaratqich kelishigining **-ni//ni** shakllari turkman shevalarida qo'llanilishi, bu o'zbek tilining ta'sirini ko'rsatadiki, kelishikning ushbu shakli boshqa turkman shevalarida uchramaydi: *Ata da:lini bäs:š ča:gasi bolan.*

Turkman shevasiga Xorazm o'g'uz shevalarida uchraydigan *biz, siz* olmoshlarining *bizar, siza:(r)* ko'rinishlari keng qo'llaniladi.

* Ushbu fonema turkman dialektologiyasiga oid adabiyotlarda turlicha belgilar bilan ifodalanadi: Гъ, Гъ.

* Ushbu fonema turkman dialektologiyasiga oid adabiyotlarda turlicha belgilar bilan ifodalanadi: гъ, гъ.

* Ushbu fonema turkman dialektologiyasiga oid adabiyotlarda turlicha belgilar bilan ifodalanadi: къ, къ.

Til oroli mavzusiga oid ishlarda ko'pchiliklar orasidagi ozchiliklar shevasi innovatsion markazdan yiroq holda ko'pchiliklarning shevasi ta'siriga uchraydi, avvalboshda, orol sifatida rivojlanib boradi, vaqt o'tishi bilan ko'pchiliklar shevasi bilan aralashib oraliq shevalar shakllanib, ko'pchiliklarning shevasiga singib ketadi. Aytish joizki, til yoki sheva butunlay yo'q bo'lmaydi, uning izlari hech bo'lmaganda leksik qatlamida saqlanib qoladi.

Shix qishlog'i oraliq shevalari

Shix qishlog'i oraliq shevasi o'ziga xos lingvistik jihatlarni aks ettirgan bo'lib, yon atrofdagi qo'shni qishloqlar shevalaridan ma'lum darajada farqli jihatlarga egadir. Uzoq yillik o'zbek va turkman xaqlarining o'zaro yaqin, quda-andachilik munosabatlari asosida yashashlari ularning tillarida ham aks etmasdan qolmagan. Shu jihatdan ushbu areal aholisi shevasida ko'proq o'zbek, shuningdek, turkman tili shevalariga xos unsurlar aralash holda qo'llaniladi.

Dialektologiya sohasiga oid adabiyotlardan ma'lumki, oraliq shevalar ikki shevaning elementlarini o'zida aks ettirib, areal jihatdan ham ikki shevaning tutashgan joylarida yuzaga keladi. Shu jihatdan, Shixobod mahallasida yashovchi o'zbeklar va o'zbeklashgan turkmanlarning shevasini ham oraliq sheva sifatida keltirish mumkin bo'ladi. Aytish joyizki, oraliq shevalarda ikki sheva elementlari aralashgan bo'ladi. Lekin mazkur qishloqdagi o'zbek va turkmanlar tillarining (ayni bir mustaqil tilning shevalari bo'lmagan holatda) aralash holdagi shevalarini oraliq sheva sifatida keltirish qay darajada to'g'ri bo'ladi, degan savol ko'ndalang qo'yilishi mumkin.

Ikki til elementlari o'zaro aralash qo'llanishiga qaramay, bir ikkinchisiga nisbatan dominantlik (birlamchi) vazifasini o'taydi va ikkinchi (ikkilamchi) til (sheva) elementlariga nisbatan kengroq uchraydi. Bunday hol nafaqat turkman va o'zbek tillarining aralash qo'llanilgan areallarida, balki har qanday ikki til yoki shevalarning shunday qo'llanilgan o'rinlarida sodir bo'ladi.

Masalan, Shix qishlog'idagi oraliq shevada, asosan, o'zbekcha fonetik, leksik, grammatik unsurlar, qisman turkmancha leksik va grammatik elementlar uchraydi.

Shix	Qo'shko'pir	Xiva	Adabiy tilda
<i>añirjanda</i>	<i>Arjanda</i>	<i>arjanda</i>	<i>ana bu tomonda</i>
<i>(u)vanda</i>	<i>hu:nda</i>	<i>ujanda</i>	<i>u yonda</i>
<i>nä:čün</i>	<i>nö(v)čün</i>	<i>näčün</i>	<i>nima uchun</i>
<i>ba:atir</i>	<i>Barjatir</i>	<i>barjatir</i>	<i>bormoqda</i>
<i>gä:atir</i>	<i>gä:jätir</i>	<i>gejätir</i>	<i>kelmoqda</i>

Oraliq shevalarda bir sheva unsurlari ikkinchisiga nisbatan kuchliroq bo'lib, dominantlik vazifasini bajaradi. Ikkinchi shevaning elementlari ham qo'llanilishi jihatidan muayyan funksiyani bajaradi. O'zbek shevalariga bag'ishlangan ko'plab ishlarda oraliq shevalardagi birlamchi va ikkilamchi shevalar haqida alohida to'xtalib o'tilmagan bo'lsa-da, lekin ishlarning mazmunidan shunga ishoralar bor. Masalan,

F.Abdullayev Xorazm shevalarida ham o'g'uz, ham qipchoq elementlari aks etgan oraliq shevalarni aralash shevalar termini bilan atab, aralash tipdagi "qipchoq-o'g'uz" shevalari, aralash tipdagi "o'g'uz-qipchoq" shevalari sifatida keltiradi [Абдуллаев Ф. 138-бет]. "Qipchoq-o'g'uz" atamasi bilan ifodalanayotgan shevalarda yetakchi dialekt qipchoq shevasi hisoblanib, unda o'g'uz elementlaridan ham foydalaniladi. "O'g'uz-qipchoq" deb belgilangan shevalarda esa, yetakchi sheva o'g'uz bo'lib, qipchoq esa, ikkilamchi sheva maqomidadir.

Alohida qayd etish kerakki, ushbu ikkilamchi sheva elementlarining mavjud bo'lishi o'sha yerda amal qilib turgan shevaning "oraliq" maqomini saqlashiga sabab bo'ladi. Agar mazkur ikkilamchi shevaning yo'qligi yoki juda kuchsiz holatda qo'llanilishi birgalikda amalda bo'lgan shevaning oraliqlik maqomini yo'qotib, dominant sheva tarkibiga to'liq o'tishiga olib kelishi mumkin.

Shunga ko'ra, Shix qishlog'i o'zbeklari va o'zbeklashgan turkmanlari shevasida o'zbek tili elementlari birlamchi bo'lib, o'rniga ko'ra turkman unsurlari ishlatiladi va qishloq o'zbeklari va o'zbeklashgan turkmanlar shevasini oraliq sheva sifatida belgilash imkoni mavjud bo'ladi. Shuningdek, bu kabi chegara zonalaridagi qishloqlar, masalan, Toshkent qozoq va o'zbek qishloqlari, Surxondaryo tojiklar va o'zbeklar, turkmanlar va o'zbeklar qishloqlari shevalarini oraliq shevalar sifatida keltirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Oraliq sheva qishloqda til oroli sifatidagi turkman shevalariga nisbatan keng qo'llaniladi. Shunga ko'ra, oraliq shevadan foydalunuvchilar qishloqning uchala mahallasida ham istiqomat qiladilar. Shevaga turkman tilining ta'siri asosan, leksik va morfologik o'rinlarda ko'rinadi. Leksik jihatdan, qarindoshlik otlari, uy anjomlari nomlarida turkmancha leksemalardan foydalaniladi: *dogan* (singil), *gälineže* (kelinoyi), *ka:ka* (bobo, ba'zan ota).

Turkman tilida zaruriyat mayli shakli **-malī // -meli** affikslarini qo'shish orqali hosil qilinadi. Ayni shu holat qishloq o'zbeklar shevasida uchraydi:

Oraliq shevada	Turkman tilida	Xorazm shevalarida	Adabiy tilda
barmali	barmali	bariř gäräk	borish kerak
gitmäli	gitmeli	getiř gäräk	ketish kerak

Shix oraliq shevasida turkman shevalariga xos bo'lgan *jali* o'xshatish ko'makchisi keng qo'llaniladi.

Oraliq shevada	Turkman tilida	Xorazm shevalarida	Adabiy tilda
bunjali	bun'yaly	mündi:n//mündijin	bunday // bu kabi
řunjali	řun'yaly	řündi:n// řündijin	shunday // shu kabi
onjali	on'yaly	ündi:n// ündijin	unday // u kabi

Oraliq shevaning na turkman tili va na o‘zbek tili shevalariga xos xususiyatlari ham borki, bu esa, shevaning o‘ziga xosligini ifoda etadi. Xususan, shevada fe’lning o‘tgan zamon shakli yordamchi *titti* formasi bilan shakllantiriladi. *Dökändän bir šuša jay alip titti*. Do‘kondan bir shisha yog‘ olgan edi.

Adabiy tilda	Xivada	Oraliq shevada	Turkman shevasida
nima	navi	navi	nä:me
nima uchun	nä:čün	nä:čün	nä:mečün
besh	beš	beš	bä:š
qiz	qī:z	qī:z	ġi:z
qo‘y	qojin	qojin	ġo:jun
piyoz	Soyan	soyan	Soyan
sabzi	gä:šir	gä:šir//kä:šir	kä:šir
qo‘l	äl	äl	äl

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ataniyazov S. Türkmen boylarinin geçmiři, yayiliři, bugünkü durumu ve geleceęi // Bilig.
2. Kuhn W. Deutsche Sprachinsel-Forschung. Geschichte, Aufgaben, Verfahren. Plauen im Vogtland. Berlin: Wolff, 1934. 407 S.
3. Olloyorov Q. Areal lingvistika fanini o‘qitish asoslari (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). –Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2020. –63 b.
4. O‘zbekiston milliy ineklopediyasi, 10-jild. Toshkent, O‘zbekiston milliy ineklopediyasi nashriyoti, 2005.
5. Абдуллаев Ф. Хоразм шеваларининг таснифи масаласи // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. II жилд. –Тошкент: ЎзФАН. 1960.
6. Аразкулиев С. Гарагалпагыстан АССР-ның Дөртгүл районындакы түркмен геплешиклери. Ашгабат, 1961.
7. Муллаев Қ. Шайхликлар. Урганч: Хоразм, 2013. 214 б.
8. Бўриев О. “Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё”. Т.: “Ўзбекистон”. –Б 44.
9. Девидов С.М. «Туркменские авляды». – Ашхабад, «БІЛМ», 1976. –С. 108-109.
10. Брегель Ю.Э. «Хорезмские Туркмены в веке». –Москва. «Восточной литературы», 1967.